

TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

Nuraliyeva Muazzamxon Yoqubjonovna
Zaylopova Ra'noxon G'ulomovna
31-IDUM va 19-maktab o'qituvchilari

Annotatsiya. *Shu kungacha barkamol avlodni tarbiyalashda ularga ta'lim berishda foydalanish uchun juda ko'plab innavatsion texnologiyalar yaratilmoqda lekin bularning hammasi ham birdek natija bermay qolayapdi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun uzluksiz ta'lim tizimi tubdan isloh qilinmoqda.*

Kalit so'zlar. *Metodika, interfaol ta'lim, ta'limni texnologiyalashtirish, intensive, pedagogik texnologiya, uzluksiz ta'lim, innovatsion texnologiyalar.*

O'quv -tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham an'anaviy usullardan farqli o'laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va ta'lim jarayonida qo'llash zamon talabidir. Albatta, ilg'or pedagogik texnologiyalar bizning fanimizga endigina kirib kelmoqda. Aslida esa ta'limga texnologik yondashuv masalasi rivojlangan demokratik xorijiy davlatlarda bundan 30 yillar muqaddam paydo bo'lgan va ular bu sohada katta yutuqlarni qo'lga kiritgan. Bugungi kunda biz pedagogika sohasidagi ilg'or texnologiyalarni kengroq va chuqurroq o'zlashtirishimiz, ularni o'z mintaqamizga mos holda qayta ishlab chiqishimiz kerak bo'ladi. Pedagogik texnologiya tushunchasiga hozirgi kunda turlicha ta'riflar berilmoqda. Muhimi shuki, pedagogik texnologiya ko'zlangan maqsadga kafolatlangan natija sifatida erishishni ifodalovchi jarayondir. Pedagogik texnologiya- bu o'qituvchi (tarbiyachi) ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (o'quvchi) larga muayyan sharoitda ta'sir kursatish va bu faoliyat maxsuli sifatida ulardan oldin belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

Ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning o'quv-tarbiya jarayonida avvaldan belgilangan sifatlarning shakllanishiga olib keladigan izchil amaliy faoliyatlarini pedagogik texnologiya deb hisoblash mumkin. Pedagogik texnologiya (yoki ta'lim texnologiyasi) bor-yo'g'i va eng asosan ta'lim oluvchi yoki tarbiyalanuvchining ta'lim-tarbiya jarayonida qanday faoliyatni va qay darajada amalga oshirishidan iborat. O'quvchining o'rganilayotgan materialni sifati o'zlashtirishini ta'minlovchi izchil amaliy faoliyati ta'lim texnologiyasi bo'lishi mumkin. Ta'limni texnologiyalashtirish - bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lim maqsadlariga erishishning eng maqbul yo'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi va qonuniyatlari va tamoyillarini ochib beruvchi pedagogik fanining yo'nalishidir. O'qitish texnologiyasi - bu mavjud sharoit va o'rnatilgan vaqtda belgilangan ta'limiy maqsadni amalga oshirishni va ko'zlanayotgan natijalarga kafolatli erishishning ta'minlovchi, o'qitish, muloqot, axborot va boshqaruvning eng maqbul yo'l va vositalarining tartibli yig'indisi.

Metodika — biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmui. U alohida metodikalarga ajraladi. Pedagogika fani ma'lum o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadbiq, qiladi. Masalan, pedagogika nazariyasini o'qitish metodikasi, biologiya o'qitish metodikasi va shu kabilar. Interfaol- tushunchasi ingliz tilida —interact (rus tilida interaktiv) ifodalanib , lug'aviy nuqtai nazaridan —inter - o'zaro ikki taraflama, —act- harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'noni anglatadil Interfaol ta'lim- ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim,

ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida, birgalikda o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim. Interfaollik- ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarini o'zlashtirish yo'lida, birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir. Ko'pchilikka ma'lumki, o'rganishning eng yaxshi usuli o'zgalarni biror bir narsaga o'rgatishga harakat qilishdir. Bunda inson o'zining hamma bilimi va imkoniyatlarini ishga solib, bu vazifaga ijodiy ravishda yondashadi. O'zaro bir birini o'qitish usuli ham xuddi shu tamoyilga asoslangan bo'lib bunda o'quvchilarga vaqtinchalik o'qituvchilik rolini bajarish taklif etiladi va ular guruhdagi boshqa o'quvchilarni o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq matnlar, qoidalar, dalillar yoki ma'lumotlar bilan ishlashga o'rgatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Guruhdagi har bir o'quvchiga biror-bir matnning bir xil nusxasi tarqatiladi. O'quvchilar galma- galdan o'qituvchilik ro'lini o'ynaydilar. Bunda o'qituvchilik ro'lini o'ynaydigan o'quvchidan quyidagilarni bajarish so'raladi. Ya'ni, guruhdagi hamma o'quvchilar matnning biror bir bo'lagini o'qib bo'lganidan so'ng —o'qituvchil: - matn bo'lagidagi ma'lumotlarning mohiyatini qisqacha aytib va tushuntirib beradi; - matn bo'yicha savollar o'ylab topib, ularga boshqa o'quvchilarning javob berishini so'raydi; - boshqalar uchun tushunarsiz bo'lgan joylarini qayta tushuntirishga va ularning ma'nosini chaqirishga harakat qiladi; - matnning keyingi bo'lagida nimalar kelishi mumkinligi haqidagi o'z taxminiy fikrlarini aytib va tushuntirib o'tadi; - matnning keyingi bo'lagini o'qish va uni atroflicha taxlil qilish uchun topshiriq beradi. Bunday turdagi darsning boshlanishida avvalo, o'qituvchining o'zi o'quvchi/o'quvchiga bu usulni aniq va ravshan namoyish qilib berishi lozim bo'ladi.

Aqli qurilmalarni yaratish va joriy etish bizni maktablarda ham qo'llanilmoqda, masalan, aqli qo'ng'iroq va xona haroratini o'lchovchi turli datchiklar yaratilgan. Bundan tashqari, yer qimirlashini aniqlash qurilmasi, fotoelektrik konverter qurilmasi, termoelektrik konverter qurilmasiga bog'liq holda zamonaviy ta'lim xonalarini yaratishimiz mumkin. Ma'lumotli saqlashda esa bulutli texnologiyalarni qo'llash juda foydali bo'lib qoldi.

O'quvchini darsda faolligi va diqqatini boshqa vaziyatlar olib o'tmasligi foydali bo'ladi hamda ta'lim sifati oshib boradi. Ushbu jarayonga biz quyidagicha taklif bermoqdamiz:

- ta'lim jarayonida o'quvchilarda tasavvur imkoniyati yetarli bo'lmaganligi uchun dars jarayoniga modellashtirish texnologiyalarini olib kirish;
- darslarda texnik qurilmalarni amaliy foydalanish imkoni bo'lmagan hollarda ishlash jarayonini virtual holda yaratish va natijani ko'rsatish;
- modellashtirilgan obyektlar asosida tahlilni olib borish;
- kimyoviy moddalar bilan ishlash jarayonida ularni ko'rsatishda;
- geografiya darslarida esa xaritalar va shaharlarning yaratilgan modellaridan umumli foydalanish mumkin.

Shuning uchun ham u o'quvchilarga o'zining matnining birinchi qismi bo'yicha munozara boshlovchi bo'lishini bildiradi va ulardan bu jarayonni diqqat bilan kuzatish kerakligini so'raydi. O'quvchilarning o'zlari ham bu usulda dars olib borishlarini bilganlaridan so'ng o'qituvchining namoyish qilayotgan darsini diqqat bilan kuzatadilar va kerakli xulosa chiqaradilar. O'qituvchi yuqorida keltirilgan besh bosqichdan iborat harkatlar ketma-ketligini tinglovchilarga batafsil tushuntirib bo'lganidan so'ng, har bir bosqichda shaxsn o'zi nima qilishi lozimligini aniq va ravshan namoyish qilib berishi juda muhimdir. Bundan tashqari, o'qituvchi

matni qanday usulda maqsadga muvofiq bo'lgan qisimlarga bo'lish muammosini ham oldindan hal qilib olishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Sayidaxmedov. «Yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llash». Toshkent. 2000 yil.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2003.
3. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 11, 167-168.
4. Minamatov, Y. E. U. (2021). APPLICATION OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY. *Scientific progress*, 2(8), 911-913.
5. Минаматов, Ю. (2021). УМНЫЕ УСТРОЙСТВА И ПРОЦЕССЫ В ИХ ПРАКТИЧЕСКОЙ ЭКСПЛУАТАЦИИ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 1(9), 875-879.
6. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Nasirdinova, M. H. Q. (2022). APPLICATION OF ICT IN EDUCATION AND TEACHING TECHNOLOGIES. *Scientific progress*, 3(4), 738-740.
7. Mamadalieva, L. K., & Minamatov, Y. E. (2021). High Efficiency of a Photoelectric Converter in a Combined Design with a Thermoelectric Converter. *Middle European Scientific Bulletin*, 19, 178-186.
8. Kamiljanovna, M. L. (2021). Analysis of the Results of the Study of the Thermoelectric Part of the Source Sensor. *Middle European Scientific Bulletin*, 19, 191-196.
9. G'ofurovich, T. X. A., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). Computer Using Dynamic System Modelling Environments. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(2), 9-13.
10. Avazjon o'g'li, V. D., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). Prospects for the Development of the 3D Modeling Process. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 7, 78-79.
11. Avazjon o'g'li, V. D., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). Use and Importance of Three-Dimensional Images in Fields. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(2), 1-4.
12. Mamatzhonovich, O. D., Khamidovich, O. M., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). DIGITAL ECONOMY: ESSENCE, FEATURES AND STAGES OF DEVELOPMENT. *Academia Globe: Inderscience Research*, 3(04), 355-359.
13. Korolkov, A. N., & Mamadalieva, L. K. (2022). Methodology for Conducting Practical Exercises to Study the Simulation System 3DS Max 2020. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 7, 80-86.
14. Olimova O. S. Method of using radio-electronic equipment diagnostics durable systems and devices for localization of defective elements // *Indonesian Journal of Public Policy Review*. - 2022. - T. 18.
15. Каримов, Ж. Х. (2021). ПРОЦЕДУРЫ ОПТИМИЗАЦИИ ГЛОБАЛЬНЫХ ЦЕЛЕЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МНОГОСТАДИЙНЫМИ ПРОЦЕССАМИ. *Universum: технические науки*, (11-1 (92)), 48-52.